
O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olishda shahar, tumanlar hokimliklariga aholini ro'yxatga olishda qanday vazifalar yuklatilgan?

Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini hisobga olib aholi punktlarida yashovchi aholi sonini ko'rsatgan holda aholi punktlarining to'liq ro'yxati tuzilishini ta'minlash;

Hududlarni aholi sonidan kelib chiqib belgilangan tartibda ro'yxatga olish, instruktorlik va hisob uchastkalariga bo'linishini ta'minlaydi hamda ularning faoliyatini tashkil etish;

ma'muriy-hududiy birliklarda ko'chalarning nomlari, uylar va kvartiralarning raqamlari ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bo'lishini ta'minlash;

jalb etilgan ro'yxatga oluvchi xodimlar tarkibini tasdiqlash;

aholini ro'yxatga oluvchi hodimlarni tanlab olish va o'qitishni tashkil etish;

aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga jalb etilgan shaxslarning o'qishi va ishlashi uchun yaroqli bo'lgan mebellar va aloqa vositalari bilan jihozlangan vaqtinchalik binolar yoki xonalar ajratilishini ta'minlash;

aholini ro'yxatga olish varag'i shakllari va boshqa hujjatlarni vaqtinchalik saqlash uchun qo'riqlanadigan binolar yoki xonalar ajratilishini ta'minlash;

zarur transport va aloqa vositalari taqdim etilishi, aholini ro'yxatga olishni sifatli o'tkazish hamda aholini ro'yxatga olish yakuni bo'yicha belgilangan tartibda aholini ro'yxatga olish varag'i shakllari va tegishli hujjatlarning birlamchi ma'lumotlarini elektron bazaga kiritish uchun topshirilishini ta'minlash,

aholini ro'yxatga olishni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ishlarning muvofiklashtirilishini tashkil etadi.

O'zbekiston tumani statistika bo'limi

2021-10-19 22:51:35